XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 7-yanvar VII-15-8-8-108-K/26 Oltinsoy tumani

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risida

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Oltinsoy tumani Soliq inspeksiyasi boshlig‘i R.Boymirzayevning 2025-yil 17-dekabrdagi 01-08350-son xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24 moddalariga muvofiq xalq deputatlari Oltinsoy tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Oltinsoy tumani Soliq inspeksiyasi boshlig‘ining R.Boymirzayevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,5 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi Axborot xizmati (U.Abdurasulov), “Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi orinbosari (M.Rasulov), bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Yu.Hakimov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **MAMATMURATOV A’ZAMAT KARAMATOVICH**

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani Kengashining
2026-yil 7-yanvardagi
VII-15-8-8-108-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani bo‘yicha Suv solig‘i uchun soliq stavkasi va koeffitsiyaentlari to‘g‘risida

T/r	Hududlar	Xalq deputatlari kengashi tomonidan 2026-yil uchun qo‘llanilgan koeffitsiyentlar								2026-yil uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)							
		Yer usti				Yer osti				Yer usti				Yer osti			
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar	Sanoat korxonalari	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar	Sanoat korxonalari	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar	Sanoat korxonalari	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar	Sanoat korxonalari	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)

1	Oltinsoy tumani	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	749,0	749,0	80 250,0	40 660,0	910,0	910,0	16 050,0	40 660,0

*Qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani Kengashining
2026-yil 7-yanvardagi
VII-15-8-8-108-K/26 -son qaroriga
2-ilova

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanida Yer qaridan foydalanganlik uchun solig‘i qazib olingan foydali qazilma hajmi bo‘yicha quyidagi miqdorlarda belgilanadi

T/r	Tuman nomi	2026 yil uchun taklif *(1.3 barobargacha oshiruvchi koeffisient)*	Bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)

		Arralanadigan xarsangtoshlar *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari)*	**Tabiiy bezaktoshdan bloklar**	**Marmar**	**Granitlar**	**Gips toshi, gips va angidrid, ganch**	**G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar**	**Qurilish qumi, qumtoshlar qum-shag'al aralashmasi**	**Arralanadigan xarsangtoshlar** *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari)*	**Tabiiy bezaktoshdan bloklar**	**Marmar**	**Granitlar**	**Gips toshi, gips va angidrid, ganch**	**G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar**	**Qurilish qumi, qumtoshlar qum-shag'al aralashmasi**
1	Oltinsoy tumani	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,1	1,1	6591,0	10700,0	21400,0	32100,0	17066,0	4943,0	5 350,0

* Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat'iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffisient belgilashga haqli